

## “O’ZBEK SHOMON FOLKLORIDA ISLOM DINI VA BASHORATLAR HAQIDA.”

*Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti, nomoddiy madaniy merosni ilmiy-tadqiq etish bo‘limi, kichik ilmiy xodimi  
Shaxzoda G‘opporova*

### Annotatsiya

Azal-azaldan kishilik jamiyatida barcha insonlar oldindan bo‘ladigan biron bir voqealarga qiziqib kelganlar.

O’zbek shomon folklorida Islom dini va bashoratlar haqida bashoratchilarning atimlari qadim-qadimdan o‘ziga xosligi bilan taniqli va shov-shuvlarga sabab bo‘lgan. Bashoratchilarning atimlari va ularning to‘g‘ri chiqishi haqida hamma birday aytaganmi? yoki yo‘q. Buni tarixdan ham bilish mukmin. Bashoratchilarning atimlari haqida barcha birdek qiziqish bildirgan.

Ularning etnomadaniy muhitlar va qadimiy hayotiy asoslari, atimlarning o‘rganilishi og‘izdan-og‘izga ko‘chishi ishonch qozonishi insonga o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Islom dini va bashoratlar haqida gap ketganda diniy va ilmiy jihatlarga aniqlik kiritish ayni mudaodir. Zero din bu ilmiy manbalarga ulug‘ kitoblarga asoslangan aniq faktlarga tayanadi.

Bashoratchilar yillar davomida dunyodagi diniy o‘zgarishlar haqida gapirganlar.

Islom diniga ham bu jarayon o‘z tasirini ko‘rsatganligini tarix isbot qiladi. Islom dinida oxirzamon payg‘ambarining tug‘ilishi haqidagi bashoratlar tillarda doston bo‘lganligi ham bizgacha ma’lum.

Hалигача бу олам сирлари очилмаган бо‘lsada bashoratchilarning atimlari ko‘rsatmalari o‘z yechimini to‘la очилмаганлиги kundek ravshan.

Bizni o‘rab turgan borliq g‘aroyibotlarga to‘laligicha qolmoqda. Maqlada shu mavzuda so‘z yuritiladi.

### Абстрактный

С незапамятных времен всех людей в человеческом обществе интересовали те или иные события и события, которые произойдут заранее.

В фольклоре узбекских шаманов изречения пророков об исламе и пророчества издревле были известны своей уникальностью и вызывали ажиотаж. Все ли согласились с именами прорицателей и правильным их выводом? или нет. Этому можно научиться из истории. Всех одинаково интересовало то, что говорили прорицатели.

На человека оказывает влияние его этнокультурная среда и древние жизненные устои, заучивание поговорок, передача из уст в уста и обретение уверенности.

Говоря об исламе и пророчествах, важно прояснить религиозные и научные аспекты. Потому что религия опирается на эти научные источники как на ясные факты, основанные на великих книгах.

Пророки уже много лет говорят о религиозных изменениях в мире.

История доказывает, что этот процесс также оказал влияние на ислам. Нам известно, что пророчества о рождении пророка конца времен в исламе были эпосами на языках.

Хотя тайны этого мира еще не раскрыты, ясно как день, что наставления духов пророков не полностью раскрыли их разгадку.

Мир вокруг нас полон чудес. Статья посвящена этой теме.

### **Abstract**

From time immemorial, all people in human society have been interested in certain events and phenomena that will happen in advance.

In Uzbek shaman folklore, the fortune-tellers' tales about Islam and prophecies have been known for their uniqueness and have caused a stir since ancient times. Did everyone say the same thing about the fortune-tellers' tales and their accuracy? Or not. This can be known from history. Everyone was equally interested in the fortune-tellers' tales.

Their ethnocultural environment and ancient life foundations, the fact that the tales were learned and passed down from mouth to mouth, have an impact on a person.

When talking about Islam and prophecies, it is necessary to clarify the religious and scientific aspects. Because religion relies on scientific sources and great books based on accurate facts.

Fortune-tellers have talked about religious changes in the world for ears.

History proves that this process also had an impact on Islam. It is also known that in Islam, prophecies about the birth of the prophet of the end times were epics in various languages.

Although the secrets of this world have not yet been revealed, it is clear as day that the names of the prophets have not yet fully revealed their meaning.

The universe surrounding us remains full of strange things. This article will discuss this topic.

**Kalit so‘zlar:**Folklor, shamon, bashoratchilar, islom, din, qadim, Alloh, payg‘ambar, arab, johiliyat, tavrot, zabur, injil.

**Ключевые слова:**Фольклор, шаман, пророки, ислам, религия, древние, Аллах, пророк, арабский , джалилия, тора, псалмы, библия.

**Keywords:** Folklore, shaman, prophets, islam, religion, ancient, Allah, prophet, arabic, jahiliyyah, torah, psalms, bible.

Biz bilamizki bashoratchilik islom dinida qattiq qoralangan ammo tarixda bilamizki bashoratchilar bo‘lishgan va kelajakni bashorat qilishgan. Ulardan eng taniqlilari Nastrodamus va Vanga xisoblanadi. Ular bu qobiliyatni qaerdan olganligi faqat Ollohga ayon. Ularning bashoratlari ko‘pchiligi o‘z tasdig‘ini topgan ( ya’ni bashorat qilganlari ular aytishganidek bo‘lgan) Islom dini haqida ham ko‘pgina bashoratlar qilishgan. Bir kuni Vangadan nargi dunyo haqida so‘rashibdi. Vanga esa uzoq o‘ylanib men bu haqda gapira olmayman, gapirishga haqqim yo‘q degan. Islom dini bularga qanday qaraydi bashoratlarga ? bashoratlargachi ? Sizlardan javob kutaman. Degan mazmundagi savollar bilan internet tarmoqlarida ko‘pgina savolar yog‘ilgan bir paytlarda ustoz Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rohimahulloh: hazratning javoblari shunday bo‘lgandi.

Bu ma’noda «bashorat» so‘zini ishlatish noto‘g‘ri. “Bashorat” degani suyunchilik xabar deganidir. Siz so‘z yurtigan mavzuni “folbinlik”, “munajjimlik” deyiladi. Ya’ni, g‘ayb xabarlarni, kelajakda bo‘ladigan narsalarni bilishni da’vo qilish. Bu Islomda qattiq qoralangan ishdır. Ushbu- Alloh taoloning do‘sstaridan qalbi munavvar bo‘lgan kimsalar muhtoj bo‘ladigan narsalar jumlasidir. Bu-ilmda mustahkam bo‘lganlar darajasidir. Chunki, ilm ikkidir. Biri xaloyiqdagı mavjud ilm. Ikkinchisi, xaloyiqda yo‘q ilm. Bas, mavjud ilmni inkor qilish kufrdır. Yo‘q ilmni da’vo qilish ham kufrdır. Iymon faqatgina mavjud ilmni qabul qilish va yo‘q ilm talabini tark qilish bilan sobit bo‘ladi.

Sharh: «Ushbu»-shariatda, e’tiqodda va amal qilishi vojib bo‘lgan mazkur narsalarga ishoradir. Muallifning «Bu-ilmda mustahkam bo‘lganlar darajasidir»-degani, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam keltirgan narsalarni umumiy va tafsiliy, musbat va manfiy ravishda bilishdir. «Yo‘q ilm»dan murod, Alloh taolo O‘z bandalaridan maxfiy tutgan, uning talab va hosil qilishdan qaytargan qadar ilmdir. «Mavjud ilm»dan murod, shariatning asli va far’iga tegishli ilmdir. Bas, kimki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam keltirgan narsalardan biror narsani inkor qilsa, kofirlardan bo‘ladi. Kimki, g‘ayb ilmini da’vo qilsa kofirlardan bo‘ladi. Dalil: 1. «U zot g‘aybni bilguvchidir. Bas, O‘z g‘aybiga birovni zohir qilmas. Magar U rozi bo‘lgan Rasulni» (Jin: 26). 2. «Albatta, Soat (qiyomat) ilmi Alloh huzuridadir. U zot yomg‘irni nozil qilur. Rahmlardagi narsani bilur. Hech bir jon ertaga nima kasb qilishini bilmas. Hech bir jon qaerda o‘lishini bilmas. Albatta, Alloh o‘ta biluvchi, o‘ta xabardordir» (Luqmon, 34). Bizning Alloh taoloning taqdirini va maxluqotlaridagi hikmatini bilmasligimiz, o’sha ishda taqdir va hikmat yo‘qdir, degani emas. Bizning ko‘zmizga faqat zararli bo‘lib ko‘ringan ilon, chayon, sichqon, hashorat va boshqa ozor beruvchi narsalarda Allohnинг maxfiy hikmati borligini bilmaysanmi? Ushbu maxfiylik, o’sha

narsalarning yoki ularni xalq qilish hikmatining yo‘qligi emasku! Islomda bashoratchilar va butun olam Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallamni qanday kutgan edi? Oxirzamon payg‘ambari Muhammad mustafo sollallohu alayhi va sallamning kelishlarining xabari ilohiy manbalarda bayon qilingan edi. Alloh taoloning elchilarining barchasi o‘z ummatlariga bu xushxabarni etkazib, barchani unga ergashishga da’vat qilgan edilar. Shuning uchun ham butun olam u zotning kelishidan xabardor bo‘lib, u zoti sharifni kutayotgan edi.

Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallamning tavalludlari yaqinlashib qolgan kezlarda yahudiy ravvinlari, nasroniy ruhoniylari, hatto bashoratchilar, sehrgarlar, folbinlar va boshqalar u zotning yaqinda dunyoga kelishini aytib, bu hodisani bashorat qila boshladilar. Ayniqsa, yahudiy olimlari va nasroniy ruhoniylari o‘zlarining muqaddas kitoblarida bashorat qilingan Allohning Rasuli tug‘iladigan kun yaqinlashganini qat’iyan ta’kidlay boshlagandilar. Bashoratchilar esa Muhammad sollallohu alayhi va sallamning arablar orasidan chiqishni aytishardi. Buni ularga Shayton o‘rgatgan edi. Chunki o‘sha zamonlarda shayton-u jinlarda osmonga ko‘tarilib farishtalarning suhabatini eshitish imkonini bor edi. Payg‘ambar alayhissalom tavallud topganlaridan so‘ng ular ana shu imkoniyatidan mahrum bo‘ldi. Biroq arablar Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam nubuvvatni e’lon qilganlariga qadar bunga e’tibor bermadilar. Quyida shunga bir necha guvohlar keltiramiz:

Badr jangida qatnashgan Salma ibn Salom aytadiki, ularning banu Ashxal qabilasidan bir yahudiy qo‘shnisi bo‘lgan. Bir kuni u butlarga ibodat qilayotgan odamlarga yaqinlashib, Qiyomat kuni, Qayta tirlish, Hisob-kitob, Tarozi, Jannat va Do‘zax haqida gapira boshlaydi. Shunda unga: “Sho‘ring qurgur, o‘lgan odamning qayta tirilib, Jannat yoki Do‘zaxga tushishini qanday qilib tasavvur qilasan, shunday bo‘lishi mumkinmi?” deyishdi. U bunga javoban: “Albatta, jonim qo‘lida bo‘lgan Zot nomi bilan qasam ichaman!” dedi. Shunda mushriklar unga: “Holingga voy bo‘lsin! aytgan shu gaplaringga qanday dalillaring bor?” deyishdi. U: “Yaqinda paydo bo‘ladigan payg‘ambar mana bu o‘lkadan chiqadi”, deya ko‘rsatkich barmog‘i bilan Makka va Yamanni ko‘rsatdi. Ular: “Xo‘p, uni oramizdan kimdir ko‘ra oladimi?” deb so‘rashdi. Shunda u menga qaradi. O‘sha to‘planganlar orasida eng yoshi men edim. “Agar keksaygunga qadar umr ko‘rsa, mana shu bola ko‘radi uni”, dedi.

Osim ibn Amir ibn Qatoda o‘z qabilasining tarixi haqida so‘z yuritarkan, jumladan, bunday degan edi: “Biz Rabbimizning mehribonchiligi bilan

1

Yakkaxudolik dinini qabul qilgunga qadar ushbu din haqida yahudiy limlaridan ko‘p eshitardik. Biz u zamonlarda ko‘pxudolikka e’tiqod qilardik va butlarga sig‘inardik. Ularning Muqaddas Kitobi bor edi va o‘sha odam Kitobini o‘qigani bois

<sup>1</sup> Интернет маълумотлари...00:00 / 27.06.2009 | eski savollar | 4423

biz bilmagan narsalarni bilar edilar. O‘rtamizda allaqanday adovat hukm surardi. Qachonki biz tomondan ularga yoqmaydigan ish sodir bo‘lsa, bizga yaqinda keladigan payg‘ambar bilan dag‘dag‘a qilardi: “Biz kutayotgan payg‘ambarning kelishiga oz qoldi. Hademay biz sizni od qavmi Eram aholisini qanday yo‘q qilgan bo‘lsa, o‘shanday yo‘q qilamiz!” Bani Qurayza qabilasidan bo‘lgan qariya hikoya qiladi: “Islomdan oldin bizning diyorga Shomdan o‘zining dinini mahkam ushlagan bir yahudiy ko‘chib keldi va oramizda yashay boshladi. Uni Xayban derdilar. Qachon qurg‘oqchilik bo‘lsa biz undan Allohdan yomg‘ir so‘rab berishini iltimos qilardik. U yomg‘ir so‘rashga chiqishdan oldin bizni qurbanlik qilishga majbur qilardi va shundan keyingina chiqib Allohdan yomg‘ir so‘rab iltijo qilardi. Alloh taoloning izni bilan har safar uning duolaridan so‘ng yomg‘ir yog‘ardi. Bu hol bir, ikki emas, juda ko‘p bor takrorlandi. Vafot etishidan oldin bu erga nega ko‘chib kelganini gapirib bergandi: bu o‘lkadan payg‘ambar chiqadi va uning keladigan vaqt vaqinlashgan. “Men bu erga uni ko‘rish va ortidan ergashish umidida ko‘chib kelgandim”.

Amr ibn Anbasa roziyallohu anhu aytadiki: “Men johillik davrida ham butparastlikdan nafratlanardim. Ularga bir marta ham sig‘inmaganman. Bir kuni Madina va Shom o‘rtasidagi Taymo o‘lkasidan bo‘lgan ahli Kitoblardan birini uchratdim va unga bunday dedim: “Men toshlarga sig‘inadigan xalq vakiliman. Menimcha, bu sig‘inishdan hech qanday ma’no yo‘q. Chunki odam o‘zi olib yuradigan to‘rtta toshning uchtasini ehtiyojlari uchun ishlatadi va otib yuboradi, qolgan bittasini ibodat uchun olib qo‘yadi. Yanada chiroyliroq toshni topib olsa, o‘shanga sig‘inib boshlaydi va qo‘lidagi toshni uloqtirib yuboradi yoki ehtiyojiga ishlatadi. Men ularning ilohlarga sig‘inishi – yolg‘on, bu toshlar ularga foyda ham, zarar ham etkaza olmaydi deb o‘yayman, dedim”.

Shunda u ahli Kitob menga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatib bunday dedi: “Makkadan odamlarni yanglish yo‘ldan qaytarib, haqiqiy Alloh sig‘inishga da’vat qiladigan odam chiqadi. Agar shunday hodisani eshitsang, uning huzuriga shoshil, u haqiqatan, eng haq dinni olib keladi”.

Shu gapni eshitganidan so‘ng menda tezroq Makkaga borib, uni o‘sha erda kutib olishdan boshqa maqsad bo‘lmadi. Har doim odamlardan biror hodisa yuz berdimi, yo‘qmi? deb so‘rab yurardim”.

Umayya ibn Abu Silat as-Saqafiy bir safar Makka ulug‘laridan Abu Sufyonni uchratib qolib unga bunday dedi: “To‘g‘risini aytsam, kitoblarda yaqin orada bizning o‘lkada paydo bo‘ladigan payg‘ambarning sifatlarini o‘qiganidan keyin u men bo‘lsam kerak deb o‘yladim. Bu haqda ko‘pchilikka gapirib ham yurdim. Keyin menga uning Abdulmannof urug‘idan chiqishi ayon bo‘ldi va uni shu urug‘ ichidan izlay boshladim. Kitoblarda tasvirlangan sifatlarga eng yaqin keladigani Utba ibn

Robia edi. Biroq u qirq yoshdan o‘tib ketgandi va vahiy kelmagan edi. Shundan bildimki, u u emas”.

Payg‘ambar sollallohu alayhi va sallam nubuvvatni e’lon qilib, odamlarni Islomga da’vat eta boshlaganlarida Abu Sufyon Umayyaga aytgan gapini eslatdi. Umayya buni haq dedi va Abu Sufyonni payg‘ambarga ergashishga da’vat qildi. Abu Sufyon undan: “Bu ishni o‘zingiz qilishingizga nima monelik qiladi?” deb so‘radi. Umayya unga javoban: “Saqif ayollari oldida uyatga qolishim, Men ularga yaqin orada payg‘ambar bo‘laman degan edim. Endi esa Mutalib urug‘idan bo‘lgan yosh yigitga qanday qilib ergashaman?”

Talxa ibn Abdulloh roziyallohu anhu aytadi: “Busra shahriga kelganimizda bozorda bir rohibni uchratdik. U bizdan: “Qaysi biringiz al-Haromdansiz?” deb so‘radi. Men unga: “Men o‘sha erdanman”, dedim. U darhol: “Ahmad paydo bo‘ldimi?” deb so‘radi. Men ajablanib: “Ahmad deganingiz kim?” dedim. U: “Abdulloh ibn Abdulmutalibning o‘g‘li, bu uning oyi, shu oyda u nubuvvatini e’lon qiladi. Unda payg‘ambarlik muhri bor. U Haromdan chiqadi va xurmolar o‘lkasiga (Madina) hijrat qiladi”, dedi”.

Abbos ibn Abdulmutalib roziyallohu anhu aytadi: “Biz tijorat ishi bilan Abu Sufyonning karvonida Yamanga borganimizda uning o‘g‘li Xanzala maktub olib keldi. Maktub bunday yozilgan edi: “Haqiqatan, Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) Makkada o‘zini Allohnинг elchisi deb e’lon qildi”. Bu ovoza yamanliklar orasida ham yoyildi. Shunda bir yahudiy ruhoniy yaqinlashib kelib, “Eshitishimga qaraganda, sizlarning biringiz o‘zini payg‘ambarman deb e’lon qilgan kishining amakisi ekansiz”, dedi. Men: “Ha, u menman”, deb javob berdim. “Xudo xayringni bersin! marhamat qilib aytgin-chi, o‘sha jiyaningning yoshlida qandaydir ahmaqona odatlari bormidi?” deb so‘radi u. Men: “Yo‘q, Allohgа qasamki, u hech qachon yolg‘on gapirmagan, aldamagan, odamlar orasida u eng ishonchli, amin hisoblanadi”, dedim. Shunda yahudiy: “U yozishni biladimi?” deb so‘radi. Men ehtiyyot yuzasidan boshqacharoq javob bermoqchi bo‘ldim. Ammo Abu Sufyon baribir gapimni rad qiladi deb o‘yladimda, yo‘q, deb qo‘ya qoldim. Shunda ruhoniy xitob qilib: “Yo Xudo! U o‘sha!”, dedi.

Biz Payg‘ambar sollallohu alayhi vasallamning qanday kutib olinganiga doir bir nechagina misollar keltirdik, xolos. Biroq yodda tutaylikki, u zoti sharifni faqat insonlar emas, hayvonlar, hatto jinlar ham kutganlar.

Yuqorida keltirilgan islomdagи bashoratchilarining oxir zamon payg‘ambarini tug‘ilishini aytishganlar. Bu yangilik odamlar ichida ham bir qancha tuqnashlarga salbiy fikrlarga tug‘ilishiga olib kelgan.

<sup>2</sup> Интернет маълумотлари асосида чоп этилди Feval 17, 2020

Johiliyat davrida odamlar islom diniga butkul ishonchlari bo‘lmaganliklari bois ko‘p insonlar bashoratchilarga murojaatlar qilishgan. Ular to‘g‘ridan to‘g‘ri butlarga sig‘inishgan. Islom olamida g‘ayridinlar tomonidan yangi tug‘ilishi kutilayotgan payg‘ambar haqida yangidan-yangi uydirmalar bo‘lgan. O‘z davrida bashoratchilarning kuchliroqlarini aytimlari ham bu kabi fikrlarni bog‘lab aniqlik kiritishgan. Yillar davomida g‘ayridinlar tomonidan olib borilgan oshkora va maxfiy ko‘rinishlarda folbinlar, kohinlar va bashoratchilarning aytimlariga suyanib payg‘ambar Muhammad Mustafo salollohu alayhi vasallamni kimligi haqida oldindan bilishga juda katta urinishlar bo‘lgan.

Johiliyat davrining eng mashhur folbinlari va bashoratchilari har ikki holatda ham payg‘ambar tug‘ilishiga qarshilik ko‘rsata olishmagan. Zero arablarda Allohnинг dunyo zaminidagi oxirgi elchisi tug‘ilishi olamshumul xodisalar boshlanishiga sababchi bo‘lishi oldindan ulug‘ kitoblarda Tovrot, Injil, Zaburlarda bayon etilganligini shohidi bo‘lish uchun ham bu borada bashoratchilarga tayanishgan. Aniq xulosalar ayniqsa islomda dinda ulug‘ bir insonni tug‘ilishi ham bashoratchilar tomonidan aniq aytilgan va sanalarigacha ular kun sanashib soat sayin kutishganlar. Faqat bashoratchilargina emas bu borada Alloh taolloning karami va borliqning ulug‘ zot tug‘ilishiga bo‘lgan toleydagi yoziqlar sabab ham bashoratchilar aynan Muhammad mustafo salollohu alayhi vasallamning payg‘ambar bo‘lishlarini sezishmagan. Bu esa johiliyat davrining kishilarni g‘ayridin bo‘lishlari va butlarga sig‘ishlari ko‘proq bashoratlarga bog‘lanib qolib insoniy fazilatlarni unitishlari Alloh taolloning ham o‘z hukmi o‘qilishi butun olam uchun ham yangilik bo‘lgandi.

Payg‘ambarning tug‘ilishi yohud oilasi haqida hamma qiziqishlar bo‘lishiga shuncha bashoratchilarni atimlariga qaramasdan u zotni Alloh taollo 40 yoshga to‘limganlaricha barcha atrofdagi g‘ayri kuchlarda himoya etib kelgan.

Bashoarchilar ham 40 yil o‘tib payg‘ambarning kim ekanligini oldindan aytgan bo‘lsalarda aniq shu inson deya ayta olmaganlar. Payg‘ambar aslida Alloh taollo tomonidan berilgan bu rutboni 40 yoshlarida vahiy orqaligina eshitgan va o‘zlar bu haqda xalq ichida atib o‘zlarini tanitib borganlar.

Folbinlar bashoratchilar, azaldan bo‘lganligi bois ularga insonlar ishonuvchan bo‘lib qolishgan.

Xiromantiya so‘zi qadimgi grek tilidagi χείρ-qo‘l va μαντεία-fol ochish, gumon qilish, taxmin qilish so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, istelohda qo‘l tuzilishi va kaft izlariqa qarab inson taqdirini oldindan aytib berish bilan shug‘ullanishlikka aytildi.

Xiromantiya, ya’ni qo‘l kaftiga qarab insonning kelajagini bashorat qilish faqatgina taxmin-gumonlarga asoslangan bo‘lib, hech qanday ilmiy asosga ega emas. Xiromantiya yolg‘iz Alloh taoloning O‘zi bilishi mumkin bo‘lgan narsalar haqida bo‘lgani hamda gumonga asoslangani uchun dinimizning asosiy ta’limoti – tavhidga

ziddir. Islom dini aqidasining asoslaridan biri g‘aybga, ya’ni ko‘z ko‘rib, qo‘l bilan tutib bo‘lmaydigan narsalarga ishonishdan iborat.

Islom manbalarida munajjim va kelajak haqida xabar beradiganlarga murojaat qilish taqiqlanadi. Zero, faqat Alloh taologina g‘ayb ilmlarini biluvchidir. Bu haqda Alloh taolo bunday marhamat etadi:

«G‘ayb (yashirin ish va narsalar) kalitlari Uning huzuridadir. Ularni Undan o‘zga bilmas. Yana, quruqlik va dengizdagi narsalarni (ham) bilur. Biror yaproq (uzilib) tushsa (ham) uni bilur. Yer zulmatlari (qa‘ri)dagi urug‘ bo‘lmasin, ho‘lu quruq bo‘lmasin, (hammasi) aniq Kitob (Lavhul-mahfuz)da (yozilgan)dir», (Al-Anom surasi, 59-oyat).

«Ayting: Allohdan boshqa osmonlar va Yerdagi biror kimsa g‘aybni bilmas», (An-Naml surasi, 65-oyat).

«Darhaqiqat, Allohning huzuridagina qiyomat (qachon bo‘lishi to‘g‘risida) bilim bordir. U (xohlaganicha) yomg‘ir yog‘dirur va bachadonlardagi narsa (homila)ni bilur. Biror jon ertaga nima ish qilishini bilmas. Biror jon qaerda o‘lishini ham bilmas. Albatta, Alloh (hamma narsani) biluvchi va xabardor zotdir», (Luqmon surasi, 34-oyat).

Alloh taolo hatto payg‘ambarlariga ham g‘ayb ishlarini bildirmagan ekan, endi folbinlarning g‘aybni bilishlikni da’vo qilishliklari mutlaqo haqiqatga ziddir.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ham o‘zlarining muborak hadislarida sehr va foldan qaytarganlar hamda sehrgar va folbin oldiga borish, ularning gapini tasdiqlash kufrga olib borishligi haqida ko‘p bora ta’kidlaganlar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytadilar: “Kimki bashoratgo‘y yoki folbinning oldiga borib, aytayotgan gapini rost deb bilsa, u shubhasiz, Muhammadga tushgan narsaga kufr keltiribdi” (Imom Abu Dovud, Imom Nasoiy, Imom Ibn Moja rivoyati).

Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yana aytadilar: “Kimki bashoratgo‘yning oldiga borib, undan biron narsani so‘rasa va uni tasdiqlasa, qirq kungacha uning biron ta ham namozi qabul qilinmaydi”. (Imom Muslim rivoyati).

Shuningdek, xiromantiya bilan juda ko‘p salbiy holatlar bog‘liq bo‘lib, bu haqda Kanadaning Toronto Islom universitetining katta ustozи Ahmad Katti quyidagi fikrlarini bayon etadi: “Xiromantiya-loqaydlik va dangasalikka olib keladi. Ishonuvchan odamlar firibgarlarning boyishlariga sabab bo‘ladilar”.

Darxaqiqat, folbin va sehrgarlar zarari faqat odamlarning vaqtি, moli va harakati bekorga ketayotgani bilan chegaralanib qolmaydi. Bu zarar jiddiy ijtimoiy ziddatlarga ham sabab bo‘ladi. Bu zararlarning eng kichigi odamlar o‘rtasida dushmanlik ruhi, ishonchszilik paydo bo‘lishi hisoblanadi.

Folbin, kohinning g‘aybdan bergen xabarini tasdiqlash oyati karima va hadisi sharifga asosan kufr hisoblanishi yuqorida aytib o‘tildi. Shunday ekan, Alloh taolo

barchamizni O‘zining to‘g‘ri yo‘lidan adashtirmsin, e’tiqodimizga futur etishiga sabab bo‘ladigan amallardan o‘zi saqlasin.

Islom dinida fol ochish ham folbinga borish ham kufrdir. Bashoratchilarning taxminiy xulosalari emas toleyda bori bo‘ladi. Albatta er shari shunchaki osilib turmaganligini inobati ularoq biz Alloh tomonidan bir tomchi nutfadan yaratildik. O‘tmishda bashoratchilarning aytimlari va xozirgi zamonda ularning fol ochishdagi ishlari har zamonada o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Nima bo‘lganda ham insonlar o‘z taqdirlarini o‘zgalarni qandaydir lash-lushlariga, gaplariga ko‘rsatmalariga ishonmasdan o‘zlari aql ila yondoshib yashasalar o‘ylaymizki maqsadga muvofiq bo‘ladi.

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati.**

1. Zamin.o‘z/ jamiyat /103466-folbin va bashoratchilarning makrlari Internet ma’lumotlari.
2. Davron Nurmuhammad malumotlari internetdan olindi.
3. Savollar islom o‘z./s /237342. Bashorat aqida zikr ahlidan so‘rang.